

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.1.20.06. RAQAMLI ILMY KENGASH
BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

RAZBAEV SAYFUL NURATDINOVICH

MINTAQALARDA REKREATSIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog‘iston turizmi misolida)

08.00.13 – Menejment
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economical sciences**

Razbaev Sayful Nuratdinovich

Mintaqalarda rekreatsiya turizmini rivojlantirish mexanizmlarini
takomillashtirish (Qoraqalpog'iston turizmi misolida)3

Разбаев Сайфул Нуратдинович

Совершенствование механизмов развития рекреационного туризма в регионах
(на примере туризма Каракалпакстана)27

Razbaev Sayful Nuratdinovich

Improving the mechanisms for the development of recreational tourism in the
regions (using the example of tourism in Karakalpakstan)..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works59

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT ϕ UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.1.20.06. RAQAMLI ILMY KENGASH
BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

RAZBAEV SAYFUL NURATDINOVICH

MINTAQALARDA REKREATSIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog‘iston turizmi misolida)

08.00.13 – Menejment
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/iqt4591 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Norchayev Asatullo Norbo'tayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Xalilov Sirojiddin Sherali o'gli
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bekbosinov Aydos Quralbayevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.1.20.06, raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «10» dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (411 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «04» 12 kuni tarqatildi.

(2025-yil «04» 12 dagi 102 raqamli restr bayonnomasi).




J.K. Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor



R.B. Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent



B.S. Qalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi tartibning o'zgarayotganligi, xalqaro maydondagi siyosiy jarayonlar yechimini topishi murakkablashib borayotgan bir vaqtda (Rossiya va Ukraina, Isroil-Falastin) turizm rivojlanishi tendensiyalari ijobiy tomonga o'zgarimoqda. Xalqaro turizm eng katta inqiroz 2019-yilda boshlangan pandemiya (COVID-19) natijasida yuzaga keldi. Inqirozdan chiqish uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar ijobiy natijalarni bera boshladi, lekin pandemiya turizm yo'nalishlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Pandemiyadan keyin turistlar sog'liqni saqlashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi, natijada rekreatsion hududlarga sayohatlar bir-necha marta ortib ketdi. Rekreatsion-sog'lomlashtirish hududlari infratuzilmasini qayta ko'rib chiqish ishlari amalga oshirilmogda. Buning natijasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizm Tashkiloti (UNTourism) ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda turizm jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 10,4%, har 1/10 ish o'rni, jahon eksportining 7%, xizmatlar eksportining 30% to'g'ri kelgan. Xalqaro turistik harakatlarda 2024-yilda 1,465 mln. dan ortiq sayohlar qatnashgan bo'lib, ularga ko'rsatilgan xizmatlardan 1,480 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad olingan¹.

Dunyoning bir qator mintaqalardagi yuzaga kelayotgan ekologik inqirozlarni bartaraf etishda rekreatsion turizmning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mintaqaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash, turmahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, rekreatsion-sog'lomlashtirish markazlarining jozibadorligini oshirish, rekreatsion resurslarni to'g'ri yo'naltirish orqali mahalliy aholining bandligini ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish, hududiy turizmni rivojlantirish orqali uning YaHM (Yalpi hududiy mahsulot) va YaIMdagi ulushini oshirish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda xorijiy va mahalliy turistlarga rekreatsion-sog'lomlashtirish yo'nalishida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, respublikamizning turistik-rekreatsion resurslarga boy bo'lgan hududlarida infratuzilmani yaxshilash, turistik xizmatlarni amalga oshiruvchi klasterlarni tashkil qilish borasidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda sohada yuzaga kelayotgan dolzarb masalalarni qisqa muddatlarda bartaraf qilish borasidagi chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilayotgan bo'lib, ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlari tobora kuchaytirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizga 2024-yilda 10,2 million nafar xorijlik turistlar tashrif buyurdi. Turizm xizmatlari eksporti 3,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu borada o'sish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobarga o'sdi. 2024-yilda yaqin qo'shni mamlakatlardan tashrif buyurganlar soni 2023-yilga nisbatan 1,6 barobar, qolgan MDH mamlakatlaridan 23,7 foiz o'sgan bo'lsa, uzoq xorijiy davlatlardan 1,5 barobarga ko'paydi. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi asosida hududlar bo'ylab aholining 22,7 million nafar tashriflari amalga oshirildi. Buning natijasida turizm va unga yondosh bo'lgan sohalar yo'nalishida 51,0 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. 2024-

¹ www. UNTourism.

yilda hududlarda 124 ta yangi mehmonxona va 239 ta xostellar faoliyati yo'lga qo'yilib, jami joylashtirish obyektlari soni 6,1 mingtadan, ulardagi o'rinlar soni 161 mingdan oshdi. Shu jumladan, 2024-yilda 352 ta oilaviy mehmon uylari tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3752 taga, undagi o'rinlar soni 33,5 mingtaga yetdi. O'tgan yili 866 ta turistik xizmatlarni amalga oshiruvchi subyektlar (turoperator va turagentlar) faoliyati yo'lga qo'yildi. Buning natijasida ularning soni 3686 tadan ortib ketdi. Hozirgi vaqtda respublikamizda 3200 ta gid-ekskursovodlar faoliyat olib bormoqda².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son, 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son, 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarorlari, shu bilan birgalikda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda xorijlik olimlardan J.Makens, Chris J.Bowen, Ryan, P.Kotler, D.Lundberg, Ch.Y.Gee, M.Krishnamurthy, D.Chey, J.C.Makens singari olimlarning ilmiy qarashlari ahamiyatlidir³. Ko'rsatib o'tilgan xorijlik olimlarning tadqiqotlarida rekreatsion turizmning nazariy tomonlariga, uni rivojlantirish bosqichlariga va xizmatlarni tashkil etishga ta'sir qiluvchi omillarga e'tiborni qaratgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlari ham rekreatsion turizmni rivojlantirish borasidagi muammolarni Aleksandrova A. Yu., Balabanov I.T., Balabanov A.I., Birjakov M.B., Kabushkin N.I., Kvartalnov V.A., Dmitriyev M.N., Zabayeva M.N., Malgina Ye.N., Baumgarten L.V., Vetitnev A.M., Juravleva L.B., Borisova A.V., Ushakov D.S., Jukova M.A. kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini olib borgan⁴. MDHdagi olimlar o'zlarining tadqiqotlarida asosan

² <https://xabar.uz/iqtisodiyot/otgan-yilda-turizm-xizmatlari-eksporti>.

³ Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing For Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA.; Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts/Channel View Publications, 2003. -358 p.; Lundberg D., Krishnamurthy M. - Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Inc. 2003. -210 p.; Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. The Travel Industry. 3d. Wdit. -New York John Wiley Sons Inc. 2003. -250 p.

⁴ Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. -М.: Аспект Пресс, 2001.- 464 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. – М.: Финансы и статистика, 2003. -176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. - Издание 9-е переработанное и дополненное. – СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. -576 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4-е изд., стереотип. –Минск: Новое знание, 2004. - 409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т.

mintaqalarda turizmni tashkil qilish orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga e'tiborni qaratgan.

Mamlakatimiz olimlaridan Abduraxmonov K.X., Tuxliyev N., Pardayev M.Q., Navruz-zoda B., Abduvohidov A.M., Eshtayev A.A., Norchayev A.N., Adilchayev R.T., Nazarbayev O., Qalmuratov B., Embergenova A., Turayev B.X., Xamidov O.X., Safarov B.Sh., M.T. Aliyeva., F.A.Aziztayeva., H.H.Ziyavitdinov., S.S.San'atbekov., A.A.Berdiyev., B.K.Kusekeev., I.F.Umirov⁵ singari olimlarning ilmiy ishlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, uni samarali boshqarish, turistik resurslardan maqsadli foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Mamlakatimizning nomlari keltirib o'tilgan olimlari va tadqiqotchilarning tadqiqot jarayoni sayohatlarni tashkil etish, raqobatbardosh turistik xizmatlarni taqdim etish, turistik resurslardan to'g'ri foydalanish, turistik subyektlar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va infratuzilmani takomillashtirishga yetarlicha hissa qo'shgan. Shuningdek, ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mintaqalarda rekreatsion turizmni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, rekreatsion hududlar infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-hususiy sheriklik imkoniyatlaridan samarali

-М.: Финансы и статистика, 2002. - 499 с.; М.Н.Дмитриев, М.Н.Забаева, Е.Н.Малыгина. Экономик туристского рынка: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям сервиса и туризма. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. –311 с.; Л.В.Баумгартен. Управление качеством в туризме. Практикум: учебное пособие. –М.: КНОРУС, 2008. –288 с.; А.М. Ветитнев, Л.Б. Журавлева. Курортное дело: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. 528с.; А.В.Борисова. Курортное дело и оздоровительный туризм: учебное пособие. – Ярославл: ЯрГУ, 2009. -114 с.; Д.С.Ушаков. Экономика туристской отрасли: учебное пособие. – Ростов на Дону: «МарТ»;

⁵Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. –Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -2006. -367 с.; Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. - Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.; Навруз-зода Б ва бошқалар. Туристтик ҳудуд рақобатбардошлиги. Монография. Бухоро: “Sadridin Salim Vuxoriy” Durdona nashriyoti, 2017 -156 б.; Пардаев О.М. Менеджмент. Ўқув қўлланма. –Т.: Фан ва технология, 2019. –248б.; Абдувоҳидов А.М. Туризмда электрон бизнес. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ. Иқтисодиёт, 2020. -189 б.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). DSc. диссертация автореферати – Самарқанд. 2019.; Норчаев А.Н. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари. DSc. диссертацияси. –Т. 2021 й. -248 б.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. автореф., 2011.–38 с.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятий на рынке туристических услуг Узбекистана: канд. дисс. автореф, 2006. -22 с.; Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш. DSc. диссертацияси. –С.: СамИСИ, 2016. -254 б.; М.Т. Алиева. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари: иқт.фан.док. дисс. автореф. – С.: СамИСИ, 2019. -77 б.; М.М.Zarkeyeva. Servis sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). PhD diss.avtoreferati. 2024 y. -55 b; A.U.Temirxanov. Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik risklarini baholash tizimini takomillashtirish. PhD diss. avtoreferati. 2024 y. -59 b; F.A.Aziztayeva. Turizm xizmatlarini rivojlantirishning samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Jizzax viloyati misolida). PhD diss.avtoreferati. 2024 y. -57 b; H.H.Ziyavitdinov. Restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. PhD diss.avtoreferati. 2024 y. -56 b; S.S.San'atbekov. Umum ovqatlanish xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (tez ovqatlanish korxonalari misolida). PhD diss.avtoreferati. 2024 y. -61 b; A.A.Berdiyev. Innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish. PhD diss.avtoreferati. 2025 y. -59 b; A.Y.Asenbaeva . Xizmat ko'rsatish korxonalari raqobatbardoshlik salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. PhD diss.avtoreferati. 2025 y. -59 b; B.K. Kusekeev. Mintaqada turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish va targ'ibotining marketing strategiyasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) PhD diss.avtoreferati. 2025 y. -58 b; A.M.Serjanov. Qoraqalpog'iston Respublikasida bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari (ATB Mikrokredit bank misolida) PhD diss.avtoreferati. 2025 y. -59 b; I.F. Umirov. Sog'liqni saqlash tizimida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. PhD diss.avtoreferati. 2025 y. -63 b.

foydalanish kabi masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi, shu singari rekreatsion obyektlardan turistik yo'nalishlarni ishlab chiqishda e'tiborni qaratish lozim bo'lgan omillarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog'iston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № PZ-2017-092718 "Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida rekreatsion turizmni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- mintaqalarda rekreatsion turizmni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;

- mintaqalarda turistik-rekreatsion resurslardan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

- mintaqalarda rekreatsion turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmning rivojlanishi tendentsiyalari va holatini tahlil qilish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlaridagi rekreatsiya resurslari va ularning holatini tahlil qilish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasida turistik yo'nalishlarni ishlab chiqishda rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

- rekreatsiya turizmini rivojlantirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;

- mintaqalarda rekreatsiya turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- Qoraqalpog'iston Respublikasida rekreatsiya turizmini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlashni amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi rekreatsion-sog'lomlashtirish turizmi faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti rekreatsion turizm obyektlaridan samarali foydalanish, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, zamon va makon, matematik va statistik, statistik guruhlash, SWOT-tahlil, iqtisodiy tahlilning an'anaviy modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanida rekreatsion turizm infratuzilmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillardan samarali foydalanishga ko'ra "Qarateren" ko'li hududida rekreatsion-sog'lomlashtirish klasterini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

hududlar, ayniqsa rekreatsion resurslarga boy hududlarning turistik-rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlashda rekreatsion resurslarni inventarizatsiyalash, raqamli marketing orqali rekreatsion obyektlarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish, moliyalashtirishda, jumladan ekologik xavfsizlik va ijtimoiy manfaatdorlikka ko'ra mablag'lar jalb etish kabilarning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

mintaqaning salohiyatli turistik-rekreatsion hududlari imkoniyatlariga ko'ra, jumladan "Nukus-Ellikqal'a turistik-rekreatsion", "Nukus-Qo'ng'iroq turistik-rekreatsion" va "Nukus-Taxtakopir turistik-rekreatsion" marshrutlarini yo'lga qo'yishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida rekreatsion-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishning 2025-2030-yillarga qadar o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqaning turistik-rekreatsion obyektlar imkoniyatlarini kengaytirish, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar tomonidan amalga oshirishi mumkin bo'lgan xizmatlarni takomillashtirishning qo'shimcha imkoniyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

"Qarateren" ko'li klasteri doirasida turistlarga xalqaro talablar asosida rekreatsion xizmatlarni ko'rsatish yo'nalishlari aniqlashtirilgan;

rekreatsion resurslarga boy bo'lgan hududlarning infratuzilmasini yaxshilash, turli muddatlarga mo'ljallangan loyihalarni ishlab chiqish va samarali xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur tadqiqot jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilganligi, qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, olingan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilib, mutasaddi vazirliklar va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mintaqada rekreatsion-sog'lomlashtirish turizmi va infratuzilmani rivojlantirish, turistik xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga hamda mintaqalarda rekreatsion turizm va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarning nazariy bazasini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalardan mintaqada rekreatsion turizm va sohaga oid infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, rekreatsion-sog'lomlashtirish turizm xizmatlarini amalga oshiruvchi subyektlarning faoliyatidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda hamda turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida "Mintaqaviy turizm resurslari", "Turizm resurslari", "Mehmonxonalarda axborot texnologiyalari", "Turizm marketingi", "Turizmda transport xizmatlari", "Turizm geografiyasi" va "Xalqaro turizm" fanlari

bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda uslubiy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqalarda rekreatsiya turizmini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanida rekreatsion turizm infratuzilmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillardan samarali foydalanishga ko'ra "Qarateren" ko'li hududida rekreatsion-sog'lomlashtirish klasterini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-sonli Farmoniga 3-ilova Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha yo'l xaritasida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm boshqarmasi 2025-yil 26-maydagi 02-13/04-154-son ma'lumotnomasi). Taklif Taxtako'pir tumani turistik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish hamda tuman turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni o'z vaqtidabartaraf yetib borish imkoni yaratishga muayyan darajada xizmat qilgan;

hududlar, ayniqsa rekreatsion resurslarga boy hududlarning turistik-rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlashda rekreatsion resurslarni inventarizatsiyalash, raqamli marketing orqali rekreatsion obyektlarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish, moliyalashtirishda, jumladan ekologik xavfsizlik va ijtimoiy manfaatdorlikka ko'ra mablag'lar jalb etish kabilarning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-sonli Farmonining 19 bandidagi belgilab berilgan vazifalarni ijrosini ta'minlashda foydalanilmoqda (Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm boshqarmasi 2025-yil 26-maydagi 02-13/04-154-son ma'lumotnomasi). Taklif mintaqada rekreatsion va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muayyan darjada xizmat qilgan;

mintaqaning salohiyatli turistik-rekreatsion hududlari imkoniyatlariga ko'ra, jumladan "Nukus-Ellikqal'a turistik-rekreatsion", "Nukus-Qo'ng'iro't turistik-rekreatsion" va "Nukus-Taxtako'pir turistik-rekreatsion" marshrutlarini yo'lga qo'yishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-sonli Farmoniga 4b-ilovasi 2 bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm boshqarmasi 2025-yil 26-maydagi 02-13/04-154-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif mintaqada turistik rekreatsion xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirish dasturlari va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga amaliy-uslubiy jihatdan asos bo'lib xizmat qilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishning 2025-2030 yillarga qadar o‘rta muddatli prognoz parametrlari bo‘yicha taklifdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Turizm boshqarmasi tamonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida turistik xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Turizm boshqarmasi 2025-yil 26-maydagi 02-13/04-154-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif turizm xizmatlari bozori resurs komponentlarining optimal integratsiyasi hisobiga sanatoriy, mehmonxona va kurortlar majmualarining maqsadli parametrlarini samarali belgilash imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta (shu jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola nashr qilingan. Ularning 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan maqolalar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari izohlab berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Mintaqalarda rekreatsiya turizmi rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari**” nomli birinchi bobida, mintaqalarda rekreatsion turizmni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, mintaqalarda turistik-rekreatsion resurslardan samarali foydalanishga ta‘sir etuvchi omillar va rekreatsiya turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanishning nazariy asoslari o‘rganilgan.


Turistik resurslarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, turistik mahsulotlarning shakllanishida asos bo‘lib hisoblanadi. Bundan shuni anglash mumkinki, ma‘lum hududda turistik faoliyatni amalga oshirishda va undan foydalanish mumkin bo‘lgan barcha obyektlar kiradi.

Turistik resurslar bevosita hudud, mintaqa tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikkita jihatni o‘zida aks ettiradi, ya‘ni geografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardir. Bunda birinchidan, mintaqalar bo‘yicha rekreatsion resurslarning hududiy taqsimlanishi, muayyan hududda mahalliy aholining dam olish va

sogʻligʻini tiklashga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish darajasi, shu bilan birgalikda mazkur hududga turistlar oqimini jalb qilish imkoniyatini koʻrsatib beradi. Ikkinchidan, mazkur mintaqaning mahalliy va xalqaro turizm bozorlariga qulay joylashishiga qarab hududiy rekreatsion turizmni rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash yoki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratib berish koʻrsatiladi. Bunda turizm hududida rekreatsion xizmatlarni koʻrsatuvchi subyektlar va rekreatsion obyektlar holatidan kelib chiqib baholanadi.


Umuman olganda mintaqalarda turistik resurslarning asosini rekreatsion resurslar tashkil etadi. Rekreatsion resurslar oʻzida turli komponentlarni birlashtiradi. Bu komponentlar insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlariga boʻlgan talabini qondirishga xizmat qiladigan vositalardir. Rekreatsion resurslarning kelib chiqishi va undan foydalanish xususiyatlariga koʻra ikkita katta guruhga, tabiiy va antropogen guruhlarga ajratiladi (1-rasm).

Turistik-rekreatsion resurslardan samarali foydalanish koʻpgina omillarga bogʻliq boʻlib, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilmaviy va boshqaruvga oid guruhlarga ajratish mumkin. (2-rasm)



1-rasm. Rekreatsion resurslarning boʻlinishi va asosiy turlari⁶

⁶Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Turistik-rekreatsion resurslardan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar⁷

Mintaqaning tabiiy sharoiti - iqlimi, landshafti, gidrografiya va biologik xilma-xilligi - turizm salohiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Tog'li hududlar, daryo va ko'llar, o'rmonzorlar, shuningdek, iqlimiy sharoitlarning qulayligi mehmonlarni jalb etishda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda turizmi rivojlangan davlatlarda sog'lomlashtirish xizmatlari quyidagi hududlarda taklif etiladi:

- rekreatsiya-sog'lomlashtirish mehmonxonalari yoki turli malakaga ega bo'lgan tijorat turar joylarining sog'lomlashtirish bo'limlarida (masalan, tibbiy spalar).

- dorivor, termal va sarguzasht spa va rekreatsiya-sog'lomlashtirish kurortlarining maxsus bo'linmalari;

- sog'liqni saqlash markazlari;

- kunduzgi sog'lomlashtirish provayderlari, shu jumladan sog'lomlashtirish markazlaridan iborat. Bular keng ko'lamli sog'lomlashtirish, spa, sauna, dam olish, fitnes, sport va tegishli go'zallik xizmatlarini ko'rsatadigan muassasalardir.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm rivojlanishi shart-sharoitlari va tendensiyalari”** nomli ikkinchi bobida, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm rivojlanishining tahlili, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlaridagi rekreatsiya resurslari va ularning holati, Qoraqalpog'iston Respublikasida turistik yo'nalishlarni ishlab chiqishda rekreatsiya resurslaridan foydalanish bo'yicha tahlillar olib borilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga turislar tashrifi bo'yicha va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha tahlillar o'tkazadigan bo'lsak, 1-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha 2019-yilda mintaqaga 651,4 ming, 2020-yilda 43,0 ming turistlar tashrif buyurgan bo'lib, ko'rsatkichning keskin tushib ketishiga hammamizga ma'lum bo'lgan 2020 yil boshida yuzaga kelgan pandemiya tufayli yuz berdi. Pandemiya tufayli ayniqsa turizm sohasi chuqur inqirozni boshidan kechirdi. Shunga qaramasdan 2021-yildan boshlab turistlar harakatida yana faollik

⁷ Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

kuzatildi va tashriflar soni 308,0 mingtani, 2022-yilda 658,1 mingtani, 2023-yilda 1212,9 mingtani 2024-yilda 1384,6 mingtani tashkil etdi. Tahlillardan ko‘rinib turibdiki pandemiyadan oldingi ko‘rsatkichlarga 2022-yilda erishildi. 2023-yilga kelib turistlar soni tezlikda o‘sh ko‘rsatkichlariga etdi. (1-jadval)


1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizmi rivojlanishi ko‘rsatkichlari⁸

Ko‘rsatkichlar nomi	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Tashrif buyurgan turistlar (ming kishi)	651,4	43,0	308,0	658,1	1212,9	1384,6
Turistlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (mln. so‘m)	19000,0	9,600	53000	22800,0	29500,0	30800,0
Mehmonxonalar soni (dona)	22	32	27	30	31	31
Turistik obyektlar soni (dona)	91	94	97	101	106	112

Shu singari tashrif buyurgan turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar ham yildan-yilga barqaror o‘sh tendensiyalariga erishmoqda. 2019-yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 190000 mln. so‘mni, 2020-yilda 9600 mln. so‘mni tashkil qildi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning 2020-yilda tushib ketishi bevosita yuqorida aytib o‘tganimizdek pandemiya vaqtida turistlar tashrifi, ya‘ni chegaralarning yopilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. 2021-yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi yana o‘sh tendensiyasiga o‘tib 5300,0 mln. so‘mni, 2022-yilda 22800,0 mln. so‘mni tashkil qilib, pandemiyadan oldingi ko‘rsatkichlardan yuqoriga o‘shni ko‘rsatdi. 2023-yilda 29500,0 mln. so‘mni, 2024-yilda 30800,0 mln. so‘mni tashkil qildi.

Mintaqada rekreatsion turizmni rivojlantirishga bir qator omillar o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Bunda omillar yaxlit bir tizim sifatida shakllanishi talab etiladi. (3-rasm)



3-rasm. Rekreatsion resurslardan samarali foydalanishga ta‘sir etuvchi omillar⁹


Bu borada mintaqa hozircha rivojlangan infratuzilmaga ega emasligi asosiy muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mintaqadagi asosiy rekreatsion resurslar mahalliy aholi istiqomat qiladigan hududdan uzoqda

⁸ Tadqiqot ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁹ Tadqiqot ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

joylashganligi ham noqulayliklar tug‘diradi. Bu o‘z navbatida boshqaruvning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Shunga qaramasdan mintaqada tabiiy-biologik obyektlarning etarli darajadali rekreatsion turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda Qarateren ko‘li bo‘yida 2023-yilda “Qarateren” etnoturizm majmuasi ochilishi marosimi bo‘lib o‘tdi. “Qarateren” etnoturizm majmuasi ko‘l va tog‘larning go‘zal manzaralari orasida joylashgan bo‘lib, bu rekreatsion turizm ishqibozlari uchun jozibador obyekt bo‘lib tanilmoqda. Majmuada turistlarga qulay xizmatlar ko‘rsatish maqsadida o‘tovlar shaharchasi, kemping uylari, amfiteatr, bolalar maydonchasi va boshqa qo‘shimcha qulayliklar yaratilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ba’zi joylarda ekotizimga zarar etkazmaslik uchun alohida e‘tibor berish va rekreatsion turizmni rivojlantirishni talab etadi. Qarateren ko‘lining infratuzilmasidan kelib chiqqan holda ko‘l qirg‘og‘ida rekreatsion-sog‘lomlashtirish klasterini tashkil qilish imkoniyati bor.



4-rasm. Taxtakopir tumani rekreatsion-sog‘lomlashtirish klasterining tuzilmasi¹⁰

Mazkur klasterini tashkil qilishda davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida tashkil etish uning infratuzilmasini shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun, mintaqani rivojlantirishning strategik maqsadlariga iqtisodiyotning raqobatdosh tuzilmasini shakllantirishga klasterli yondashuv doirasida erishish mumkin. Klasterini tashkil etishda ishlab chiqaruvchi korxonalar, yordamchi va infratuzilmaviy tashkilotlar yuqori texnologik va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish uchun yagona tarmoqqa birlashadi. Klasterini tashkil qilishda birinchi navbatda jozibadorlik nuqtai-nazaridan yondoshish talab etiladi. Qoroqalpog‘iston

¹⁰ Muallif tomonidan taklif etilayotgan klaster tuzilmasi.

Respublikasi tumanlari bo'yicha olib borilgan izlanishlarda Taxtako'pir tumani rekreatsion-sog'lomlashtirish yo'nalishida jozibadorlikka egaligi aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda klasteri aynan shu tuman miqyosida shakllantirish belgilab olindi. (4-rasm)

Shu bilan birgalikda klaster tuzilmasiga uning barcha ishtirokchilari uchun umumiy bo'lgan muvofiqlashtiruvchi kengashning va klasterning tizim integratorlari sifatida faoliyat yurituvchi etakchi kompaniyalarning kiritilishi innovatsiyalarning samarali klasterlararo transferini, keng miqyosli investitsion loyihalarni amalga oshirish hisobiga yangi bozorlarni o'zlashtirish hamda diversifikatsiyalangan turistik mahsulotni yaratishni ta'minlaydi. (2-jadval)

2-jadval

Taxtako'pir tumani rekreatsion-sog'lomlashtirish klasteri salohiyatining SWOT-tahlili¹¹

	Ichki	Tashqi
	Kuchli taraflari	Imkoniyatlar
Ijobiy	Klaster hududining hamma-bopligi; ekologik toza tabiat; noyob flora va faunalarning mavjudligi; madaniy-tarixiy resurslar; rekreatsion - sog'lomlashtirish resurslari; milliy va tabiiy yodgorliklar mavjudligi.	Mintaqani saytlarda jozibali makon sifatida joylashtirish; mintaqada joylashtirish vositalari binolarini qurish; rekreatsion-sog'lomlashtirish infratuzilmasini shakllantirish; transport, ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish; milliy oshxonani shakllantirish; salohiyatli investorlarning mavjudligi; dam olish kunlarining ko'pligi.
	Kuchsiz taraflari	Tahdidlar
Salbiy	Transport, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi; kadrlarning tajribasizligi, xizmat ko'rsatishning sifatsizligi; past iqtisodiy salohiyat; turistik klasteri shakllantirish uchun davlat va turistik firmalar birgalikdagi harakatining muvofiqlashtirilmaganligi; hududiy brendning yo'qligi.	Mintaqaning bir necha o'n yillar davomida iqtisodiy rivojlanishi etarlicha emasligi; turistlarning yanada rivojlangan infratuzilmaviy hududlarga chiqib ketishi; xizmat ko'rsatishning beqarorligi.

Mintaqada turistik–rekreatsion klasteri tashkil qilishga ehtiyoj tug'ilishining asosiy sababi, mintaqada boy turistik imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan undan foydalanish darajasi juda past ko'rsatkichlarga egaligidir. Mintaqada katta turistik resurslarga egaligiga qaramasdan shu kungacha turizm veb-saytini yaratish ishlari oxirigacha etkazilmagan. Bu o'z-o'zidan hozirgi raqamli innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilinayotgan vaqtdagi talablarga (xorijlik turistlar izlagan narsasini veb-saytdan topa olmaydi) javob bermaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud turistik infratuzilmaning miqdori va sifatini, transport vositalari imkoniyatlari, geografik joylashuvi, turistik xizmatlarning turli-tumanligi va istalgan turini yaratish imkoniyatlarini tahlil qilinishi natijasida mintaqada joylashgan turistik obyektlar va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni kiritish mumkinligini ko'rsatdi. Ularning turistik ixtisosligi, tabiiy-iqlim sharoitlari va joylashtirish hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish


¹¹ Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

darajasiga ko‘ra bir-biridan deyarli farq qilmasligi ularni bir klaster tizimga birlashtirish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning “**Qoraqalpog‘iston Respublikasida rekreatsiya turizmini rivojlantirish mexanizmlarini boshqarishni takomillashtirish yo‘nalishlari**” nomli uchinchi bobida, rekreatsiya turizmini rivojlantirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqalarda rekreatsiya turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida rekreatsiya turizmini rivojlantirishni ko‘p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash amalga oshirilgan.

Har qanday biznes turi bilan shug‘ullanadigan kompaniyani moliyalashtirishning ikki turdagi mexanizmlari mavjud. Ular ichki moliyalashtirish va tashqi moliyalashtirish mexanizmlari hisoblanadi.

Moliyalashtirish mexanizmlarining tasnifini ifodalaydi va u ilmiy asosda quyidagi tarzda izohlanadi. Tashqi moliyalashtirish mexanizmlari korxonadan tashqarisidan jalb qilinadigan moliyaviy resurslarga asoslanadi. Bu usulda biznes yurituvchi subektlar boshqa tashkilot yoki moliyaviy institutlardan qarz oladi. Uning asosiy shakllari bank kreditlari, obligatsiyalar chiqarish, lizing va mikromoliyalashtirish ko‘rinishida bo‘ladi. Bu turdagi moliyalashtirish moliyaviy leverage (moliyaviy tayanch) mexanizmlariga asoslanadi, lekin yuqori foiz to‘lovlari va to‘lov qobiliyatiga bog‘liq risklarni ham keltirib chiqaradi. Bu holatda korxonadan o‘z aksiyalarini chiqarish yoki investorlar jalb etish orqali moliya oladi. Kapital orqali moliyalashtirish xususiy kapitalni ko‘paytiradi, lekin egalik huquqining taqsimlanishiga olib keladi. (5-rasm)




5-rasm. Biznesni rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarining tasnifi¹²

Ichki moliyalashtirish mexanizmlari bu - korxonaning o‘z ichki imkoniyatlari, ya‘ni mavjud foyda, amortizatsiya ajratmalari va boshqa ichki zahiralardan orqali moliyalashtirishdir. Korxonadan ishlab topgan foydani qayta investitsiya qilish orqali o‘z faoliyatini moliyalashtiradi. Asosiy manbalar sof foyda va amortizatsiya ajratmalaridan iborat. Bu eng barqaror moliyalashtirish shakli hisoblanadi, chunki tashqi qarz yoki investor talab qilinmaydi, lekin o‘shir sur‘atlarini cheklashi mumkin. Yuqorida ta‘kidlangan va ifodalangan tasnif moliyaviy boshqaruvda keng

¹² Tadqiqot ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

qo‘llaniladi. Har bir moliyalashtirish usulining o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud bo‘lib, ular korxonaning moliyaviy strategiyasi, bozor sharoitlari va investitsion ehtiyojlariga qarab tanlanadi.

Shubhasiz, bu moliyalashtirish mexanizmlar turizm sohasi bilan ham bog‘liq. Shuni ham ta‘kidlash mumkinki, ichki moliyalashtirish mexanizmlari moliyalashtirishning eng oson va qulay usuli bo‘lsa-da, turizm kabi mavsumiy korxonalar turizm mavsumida katta miqdorda pul sarflashlari kerak. Ma‘lumki, bu turdagi moliyalashtirish mexanizmlari unchalik to‘g‘ri emas va har qanday kompaniya turizm mavsumida o‘z mablag‘larini boshqarishda qiynaladi. Moliyaviy manbalar qimmat bo‘lmagan va bu kompaniya o‘z kreditini aniq muddatda to‘lay oladigan bo‘lsa, tashqi moliyalashtirish mexanizmlari kompaniyani moliyalashtirishning eng yaxshi usullaridan biri bo‘lishi mumkin.



6-rasm. Ichki moliyalashtirish mexanizmlarning asosiy turlari¹³

Shuni ta‘kidlash kerakki, tashqi moliyalashtirish manbalari - homiyilar, donorlar, kreditorlar yoki investorlar, ayniqsa kichik biznesda ko‘pincha shubhalanadilar. Bu kompaniyalarni biznesga sarmoya kiritish uchun ichki moliya manbalariga tayanishga majbur qilishi mumkin. (6-rasm)

Ichki moliyalashtirish mexanizmlari tadbirkorlar va investorlar uchun ham muhim tushunchadir, chunki u kompaniyaning moliyaviy barqarorligi uning tashqi yordamsiz o‘shish qobiliyati va kelajakdagi rentabellik salohiyati haqida tushuncha beradi. Ushbu maqola ichki moliyalashtirish, uning savdoga ta‘siri va kengroq moliya bozoridagi rolini har tomonlama tushunishga qaratilgan.

Mintaqaning o‘ziga xos bo‘lgan rekreatsion turizmni rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlarini ekonometrik tahlil qilish va prognozlashda omillarni tanlab olishda bir qator muammolarga duch kelindi. Ekonometrik tahlil qilishda natijaviy omil sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga umumiy tashrif buyuruvchi turistlar soni (ming kishi) Y, Turistik xizmatlardan tushumlar (mln. so‘mda) X1, Mexmonxonalar soni (dona) X2, Rekreatsion-sog‘lomlashtirish yo‘nalishda tashrif buyurgan turistlar soni (kishi) X3, Rekreatsion yo‘nalishda turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni (dona) X4 qilib olindi.

¹³ Tadqiqot ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shu singari omillarni olish turizmni rekreatsion-sog'lomlashtirishini yo'nalishini ekonometrik tahlilini ochib berishga va iqtisodiyotga ta'sir natijalarini ko'rsatishga yordam beradi. Rekreatsion hududlarni iqtisodiy ko'rsatkichlarni ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish va modelga baho berish bugungi kun talabi hisoblanadi. Rekreatsion hududlar va undagi noyob o'simlik va hayvonot olamiga turizm oqimini yo'naltirganligini statistik ma'lumotlari yuritilganligi to'laqonli etarli emas.

Omillarni tanlashdagi bir qancha qiyinchliklar va ulardagi nomutanosiblik tahlilni qiyinlashtiradi. 2020-yildan 2022-yilga qadar pandemiya hisobiga statistik ma'lumotlarni past darajada bo'lgan. Shuning uchun ma'lumotlarni o'rtacha sirg'aluvchi vaqt ketma-ketligida tahlil qilib olamiz.

Ekonometrik tahlil olib borilayotganda korrelyatsiya va regressiya tahlildan foydalanish ko'p tamonlama iqtisodiy ko'rsatkichlarning natijalarini olishga yordam beradi. Bizda omillarning ko'pligi sababli ko'p omilli korrelyatsiya va regressiya tahliliga murojaat qilamiz.

Bunday hollarda qaralayotgan tendensiyaning umumiy qonuniyatini modelini topish va prognoz qilish qiyinlashadi. Shu sababli bunday tasodifiy tendensiyaning buzuvchi omillarni o'rtacha sirg'aluvchi (Moving average) metod yoki eksponensial sirg'aluvchi o'rtacha (Exponential Moving Average) metodlari bilan tekislash mumkin.

